



Annotatsiya

HERBAE MEDICINALES — DORIVOR O‘SIMLIKLARNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI VA ULARNING LOTINCHA NOMLANISHI

Baxodirova Shirin Inomjonovna
Turaboyev Shahriyor Alisherov

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabarlari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18796154>

Ushbu maqolada dorivor o‘simliklarning tibbiyot va farmatsevtika sohasidagi o‘rni, ularning lotincha nomlanish tizimi, hamda asosiy rod va tur vakillari yoritilgan. Shuningdek, dorivor o‘simliklardan olinadigan biologik faol moddalarning farmakologik ahamiyati tahlil qilingan. Maqola lotin tili fanining tibbiyot bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Herbae medicinales, Plantae, pharmaceutica, medicina, nomen Latinum, genus, species.

Tabiat inson salomatligining asosi sanaladi. Insoniyat qadimdan turli kasalliklarni davolashda dorivor o‘simliklardan foydalanib kelgan. Bugungi kunda ham farmatsevtika sanoatida ko‘plab dori vositalari tabiiy o‘simliklardan olinadi. Dorivor o‘simliklar haqida ilmiy ma‘lumotlarni ifodalashda lotin tili asosiy ilmiy til sifatida xizmat qiladi. Chunki barcha o‘simliklarning nomlanishi xalqaro miqyosda lotincha binar (ikkilik) tizimda beriladi: birinchi so‘z — rod (genus), ikkinchisi — tur (species)ni bildiradi.

Masalan, Aloe vera (L.) Burm.f. — “Aloe” — rod, “vera” — tur. Shu tarzda lotincha nomlar dorivor o‘simliklarning aniq identifikatsiyasini ta‘minlaydi.

Asosiy qism

1. Dorivor o‘simliklarning umumiy tavsifi

Dorivor o‘simliklar — bu o‘z tarkibida biologik faol moddalarga ega bo‘lgan, inson sog‘lig‘iga ijobiy ta‘sir ko‘rsatuvchi o‘simliklardir. Ularning tarkibida efir moylari, flavonoidlar, alkaloidlar, glikozidlar, saponinlar, vitaminlar kabi moddalar mavjud. Dorivor o‘simliklarning farmatsevtika sohasidagi ahamiyati juda katta. Ular asosida antiseptik, yallig‘lanishga qarshi, og‘riq qoldiruvchi, immunitetni mustahkamlovchi dori vositalar tayyorlanadi.

2. Asosiy dorivor o‘simliklar va ularning lotincha nomlari

Aloy (Aloe vera) - yaralarni bitiruvchi ,antibacterial ta’siarga ega .

Yalpiz (Mentha piperita) – og‘riqni kamaytiruvchi, nafas yo‘llarini tozalaydi.

Romashka (Matricaria chamomilla) – yallig‘lanishga qarshi , tinchlantiruvchi .

Qichitqi o‘t (Urtica dioica) – qon tozalovchi , immunitetni oshiruvchi .

Shuvoq (Artemisia absinthium) – antiparazitar va hazmni yaxshilovchi .

Shirinmiya (Glycyrrhiza glabra) – yo‘talga qarshi , yallig‘lanishga qarshi.

Atirgul (Rosa damascena) – antiseptik , terini parvarish qiluvchi .

G‘o‘za ildizi (Gossypium herbaceum) – antimikrob va regeneratsiya xususiyatiga ega .

3. Lotin tili va farmatsevtika terminologiyasi

Lotin tili farmatsevtika terminologiyasining asosiy manbai hisoblanadi. Dori vositalarining nomlanishida o‘simliklarning lotincha nomlari keng qo‘llaniladi. Masalan, Extractum Aloes, Tinctura Valerianae, Oleum Menthae, Unguentum Calendulae kabi atamalar o‘simlikdan

olingan dori turlarini bildiradi. Lotin tilini chuqur o'rganish tibbiyot mutaxassislariga farmakologiya, anatomiya va biologiya fanlarini mukammal tushinishda yordam beradi.

4. Dorivor o'simliklarning tibbiyotdagi o'rni

Zamonaviy tibbiyotda dorivor o'simliklar asosida tayyorlanadigan preparatlar keng qo'llanadi. Masalan: Aloe vera — yara va kuyishlarni davolashda ishlatiladi; Mentha piperita — sovuq qotishda, tomoq og'rig'ida, nafas yo'llarida; Matricaria chamomilla — yallig'lanish, oshqozon kasalliklarida; Glycyrrhiza glabra — bronxit va yo'talni kamaytirishda. Bunday o'simliklardan tayyorlangan preparatlar tabiiyligi, kam nojo'ya ta'siri va ekologik xavfsizligi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa

Dorivor o'simliklar insoniyat sog'lig'ini asrashda muhim manba bo'lib kelmoqda. Ularning lotincha nomlanishini bilish tibbiyot va farmatsevtika sohasida ilmiy aniq identifikatsiyani ta'minlaydi. Lotin tili orqali o'simliklarning xalqaro tasnifi o'rganiladi, bu esa zamonaviy tibbiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, herbae medicinales — inson hayotini sog'lomlashtiruvchi bebaho tabiiy boylikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika instituti ma'lumotlari, 2023.
2. Karimov A. Dorivor o'simliklar va ularning tibbiyotdagi ahamiyati. Toshkent, 2022.
3. Medicinal Plants of the World. CRC Press, 2021.
4. Latin Botanical Nomenclature Handbook. Oxford University Press, 2020.
5. WHO Monographs on Selected Medicinal Plants. World Health Organization, 2019.
6. Pharmacognosy and Pharmacology of Medicinal Plants. Elsevier, 2021.
7. Herbal Medicine: From the Heart of the Earth. Routledge, 2020.
8. Textbook of Natural Medicine. Elsevier, 2022.
9. European Pharmacopoeia. Council of Europe, 2020.
10. Medicinal Plants of Central Asia. Springer, 2021.
11. Encyclopedia of Medicinal Plants. DK Publishing, 2020.
12. Plant-derived Pharmaceuticals. Cambridge University Press, 2021.